

BAXSHICHILIK SAN'ATI FESTIVALINI TASHKIL ETISHNING  
MILLIY VA ZAMONAVIY USLUBLARI

*Suvonova Ozoda Shuhrat qizi*

*Tarix fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishi 308-guruh talabasi  
Tel: 88 583 19 02*

**Annotatsiya**

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy islohotlarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

**Kalit so‘zlar:** baxshi, baxshichilik san’ati, baxshichilik maktabi, festival, san’at, tomosha, rejissura, an’ana, marosim, urf-odat.

**Абстрактный**

В духовных реформах нового Узбекистана, развитии сферы культуры и искусства в нашей стране, создании современных учреждений культуры и искусства на основе передового мирового опыта, укреплении их материально-технической базы, всесторонней поддержке Проблемы творческой интеллигенции являются приоритетными в нашем государстве.

**Ключевые слова:** бахши, искусство бахши, школа бахши, фестиваль, искусство, спектакль, режиссура, традиция, ритуал, обычай.

**Abstract**

In the spiritual reforms of the new Uzbekistan, the development of the sphere of culture and art in our country, the establishment of modern culture and art institutions based on world-class best practices, the strengthening of their material and technical base, the comprehensive support of creative intellectuals issues are given priority by our state.

**Keywords:** bakhshi, art of bakhshi, school of bakhshi, festival, art, performance, directing, tradition, ritual, custom

O‘zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san’atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san’at turiga hurmat va e’tibor tuyg‘ularini kuchaytirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniyma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik

san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta baxshichilik san'ati festivali tashkil etilmoqda [1]. Mazkur festivalning birinchisi 2019-yil 5-10-aprel kunlari o'tkazildi. Qadimiy va qadrli san'at turi hisoblanmish baxshichilik san'ati avloddan avlodga, otadan bolaga, ustozdan shogirdga o'tib xalqning tarixi, o'zligi va dardini kuyladi. Bu borada atoqli dostonchilar va baxshilar Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Umir shoir Safar o'g'li, Bola baxshi-Qurbanazar Abdullayev, Zohir baxshi Qo'chqorov, Qodir baxshi Rahimov, Chori baxshi Xo'jamberdi o'g'li, Shomurod baxshi Mahmanov, Boborahim Mamatmurodov, Qalandar baxshi Normatov, Qora va Chori baxshi Umirov, Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li, Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar baxshi Poyonov, Abdumurod va Qahhor baxshi Rahimov kabilar ana shular jumlasidandir. Xalq baxshilari yurtimizning barcha hududlaridan yetishib chiqqan. Keyingi avlod baxshilari bergen og'zaki ma'lumotlarga qaraganda, XIX-asr va XX-asr boshlari dostonchilikning eng gullagan, ijro usullari g'oyatda takomiliga yetgan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 200 ga yaqin xalq dostoni bo'lib, ularni mashhur so'z san'ati ustalari kuylab kelgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Islom shoir, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir shoir, Bola baxshi, Nurmon Abduvoy o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li, Qodir baxshi, Haydar Boychayev, Razzoq Qozoq o'g'li, Zohir Qo'chqor o'g'li kabi yetakchi san'atkorlar o'ziga zamondosh boshqa baxshilar bilan birga bu epik an'anani qabul qilib olib, uni yanada rivojlantirdi, barkamol va go'zal holatda bizgacha olib keldi. Ular davrning muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarini tasvirlovchi 20 dan ortiq yangi doston yaratgan. Folklor zaminida mustahkam turgan bu san'atkorlar yangi-yangi forma va imkoniyatlar izlab topib, an'anaviy usul va tasviriy vositalarni yangi tematika va g'oyalarga bo'ysundirgan [4]. Dostonchilik an'analari bugungi kunda ham ayrim o'zgarishlar bilan izchil davom etmoqda. Aka-uka Qora va Chori Umirovlari, Xushboq Mardonaqulov, Qahhor Rahimov, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qalandar Normatov, Norbek Abdullayev kabi baxshilar va ularning ko'plab shogirdlarining ijodkorlik va ijrochilik faoliyati tufayli baxshichilik an'analari XX-asrdan XXI-asrga olib o'tildi, terma ijodkorligi rivojlandi. Bu esa yurtimizning turli hududlarida folklor ansambllari tashkil topishi, yoshlar orasida dostonchilik sirlarini o'rganishga ishtiyoq kuchayishiga olib kelmoqda. Yuqorida aytiganidek, dostonchilik - yuksak professional san'at. Shuning uchun ham yetakchi xalq shoirlari bo'lajak baxshi - shogird tayyorlashga alohida e'tibor berganlar. Og'zaki yaratilib, og'zaki kuylab kelingan dostonlarni avloddan avlodga faqat shu yo'l bilangina yetkazish mumkin edi. Yetakchi baxshilar shogirdlariga 2-3- yil davomida dostonchilik yo'llarini o'rgatgan. Barcha o'qitish-o'rgatish ishlari ustoz kuylashini tinglash orqali amalga oshirilgan. Shogird ustoz repertuarining muayyan qismini o'rganib, mustaqil ijrochi darajasiga

ko‘tarilgach, unga oq yo‘l tilangan. Mamlakatimizda doston kuylash an’anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchisi Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchisi Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, bulamon, qo‘schnay, doira jo‘rligida ba’zan yakka, ba’zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchisi Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan. Afsuski, ushbu maktablarning ayrimlari o‘z faoliyatini to‘xtatgan, ba’zilari esa yo‘qolib ketish arafasida turgan bir paytda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Termiz shahrida baxshilar maktabi tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad iste’dodli yoshlarni kashf etish va tarbiyalash, navqiron avlodni xalq og‘zaki ijodining noyob va boy xazinasi bilan yaqindan tanishtirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iborat. O‘zbekiston zamini Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil baxshi, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Bola baxshi Abdullayev, Shoberdi Boltayev, Boborayim Mammatmurodov, Abdunazar Poyonov, Qora baxshi Umirov, Shomurod Tog‘ayev, Qodir baxshi Rahimov, Ziyodulla Islomov, Norbek baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov, Abduqahhor va Abdumurod Rahimovlar kabi o‘nlab betakror iste’dod sohiblarini yetishtirdi va bu an’ana izchil davom etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda samarali faoliyat olib borayotgan 250 nafardan ortiq soha vakillari orasida 25 nafarga yaqini “O‘zbekiston xalq baxshisi” va “Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi” unvonlari, 1 nafari “Do‘stlik ordeni”, 11 nafari “Shuhrat” medali, 7 nafari “Nihol” mukofoti, 2 nafari “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlanganini qayd etish lozim [3]. Xalq ijodkori - baxshilar, shoirlar, oqinlar, jirovlar, jirchilar, manaschilar va qissaxonlarning o‘zaro hamkorligi, biri-biriga ustoz-shogirdligi, shu orqali ular epik repertuarining boyib borishi misolida ham ochiq-oydin ko‘rishimiz mumkin. Shu ma’noda, festivalga xalqaro maqom berilgani har jihatdan asosli va ibratlidir. Ayni vaqtida bunday festivallar, ko‘rik-tanlovlar, hamkorlikda turli-tuman tadbirlar o‘tkazish xalqimiz badiiy ijodi boyliklarini xalqaro miqyosda targ‘ib-tashviq qilish uchun munosib maydon hamdir. Ushbu festival ko‘lami va ahamiyati jihatidan juda nufuzli sanaladi. Buni uning YUNESKO shafeligida o‘tkazilayotgani, mazkur san’at bayramida Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti (AYSESKO), shuningdek, Afg‘oniston, Turkiya, Tojikiston, Kuvayt hamda boshqa davlatlardan ko‘plab faxriy mehmonlar, 80 dan ortiq mamlakatlardan 300 ga yaqin vakillar qatnashishidan ham bilish mumkin. Shuningdek, 20 davlatning ommaviy axborot vositalari xodimlari anjumanni bevosita yoritib borishdi. Xalqaro festivalda mamlakatimiz folklorshunos olimlari, baxshi, jirov va oqinlar, san’atkorlar va baxshichilik san’ati muxlislari bilan birga jahonning 75 ga yaqin davlatidan 300 dan ziyod mehmonlar ishtirok etishdi. Milliy qadriyatlarimiz ulug‘lanadigan bu tadbirda qatnashish, undan zavq-shavq olish istagini bildirgan mahalliy va xorijlik mehmonlar uchun barcha sharoitlar hozirlandi. 4

ming 700 dan ortiq yotoqjoy tayyorlandi. To‘qqizta mehmonxona va sanatoriyliprofilaktoriyda mingdan ziyod qo‘sishimcha o‘rin zaxirasi yaratildi. 483 o‘rinli 102 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etildi. Xo‘randalarga sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida 23 restoran va kafe tayyorlandi. Sifatli tibbiy, transport va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, festival ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi [4]. Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida turli viloyatlar vakillari noyob va nafis hunarmandchilik buyumlari, hududning o‘ziga xos qadriyatlarini keng namoyon etishdi. Folklor san’ati, turli xalq o‘yinlari, teatrlashgan sahna asarlari bilan barchani xushnud qilishdi. Muhtasham San’at saroyi hududida barpo etilgan etnografik shaharchalar erta tongdan yangrayotgan kuy-qo‘shiqlar va baxshilar do‘mbira jo‘rligida kuylayotgan dostonlar odamlarni yana dunyo xalqlarini birlashtirgan katta bayramga chorladi. Etnografik shaharchaning bir tomonida milliy hunarmandchilik buyumlari, boshqa tomonida san’atkorlarning rang-barang chiqishlari qalblarga o‘zgacha tarovat ulashadi. Dor o‘yinlari ham ko‘pchilikni allaqachon o‘ziga maftun etgan. Farg‘ona tumanidan kelgan “Vodil chinori” dorbozlik guruhi ham osmono‘par dor o‘yinlari bilan barchaga o‘zgacha zavq bag‘ishlagan bo‘lsa, masxaraboz va polvonlarning chiqishlari ham tomoshabinlarga manzur bo‘ldi. Dor o‘yinlari - qadimiy milliy san’atimizning bir bo‘lagi, mustahkam ildizlaridan biri. Bu hunarga xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham chuqur ta’rif berilib, kuylab kelingan. To‘yu tomoshalar dor o‘yinlarisiz o‘tmagan. Shu bois bo‘lsa kerak, san’atning bu turiga xalqimizda hamon qiziqish va intilish kuchli. Festival doirasida turli viloyatlaridan kelgan mohir pazandalar o‘z hududlarining tansiq taomlarini tayyorlash jarayonini namoyish etildi. Ko‘rgazma ishtirokchilari Samarqandning bo‘rsildoq nonlari, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryoning tandir kaboblari, Andijonning palovxonato‘rasi va boshqa taomlarning tayyorlanish usullarini kuzatish barobarida ularni ta’tib ko‘rish imkoniyatiga ham ega bo‘lishdi. Surxondaryo viloyati pavilyonida mahalliy va jahonning 24 davlatida tayyorlanadigan taomlar ko‘rgazmasi namoyish etildi. Surxoncha tandir kabob va uzunligi bir metrdan ziyod bo‘lgan alpomish kaboblar ham ishtirokchilar e’tiborini o‘ziga tortdi. Ko‘rgazmada mavjud dunyo taomlari xalqimizning pazandalik mahoratini keng namoyish etayotgan bo‘lsa, milliy taomlarimiz jannatmonand yurtimizda qadimdan oshpazlik san’ati yuksak darajada rivojlanganidan darak beradi. Qo‘li gul oshpazlar tansiq taomlarning tayyorlanish jarayonini ko‘rsatish bilan birga, uning tarixi haqida hikoya qilib berayotgani ishtirokchilar e’tiborini tortayotgani buning dalilidir. Festivalning asosiy qismi, ya’ni ochilish marosimida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, hukumat a’zolari, xorijiy davlatlardan yetib kelgan yuqori martabali mehmonlar, san’atkorlar va ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi. Marosimda Prezident SH.Mirziyoyev festival ishtirokchilarini qutladi. Prezidentimiz tantanali marosimda folklor san’atiga butun dunyoda qiziqish susayib borayotgani va buning sabablarini chuqur tahlil qilar ekan,

xalq ijodiyotining nafis namunalarini asrab-avaylash, rivojlantirish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish bo'yicha qimmatli fikrlar bildirdi. Jahon olimlari, mutaxassislarini va san'atkorlarini birdek o'ylantirib kelayotgan bu muammo yechimini topishning eng ravon, eng maqbul yo'llarini belgilab berdi. Jumladan "Ayni vaqtida hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shoubiznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu - insoniyatning bolalik qo'shig'idir" - degan fikrlari bugungi festivalning ham ma'naviy, ham ijtimoiy, am estetik ahamiyatini belgilaydi [2]. Prezidentimiz o'z nutqida o'zbek baxshichilik matabining asoschilari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Bola baxshi, Esemurat jirov, Sherna baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Qodir baxshi Rahimov va bugungi kunda ularning izdoshlari bo'lmish Shomurod Tog'ayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdimurod Rahimovlar, Qalandar baxshi, Gulnara Allemborgenova, G'ayratdin Otemuratov, Shodmon Xo'jamberdiyev, Ilhom Norov kabi o'nlab iste'dodli ijrochilar nomini tilga olib ularning faoliyatini chuqur o'rganish va targ'ib qilish masalasiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, baxshichilik san'atini ilmiy o'rganishdek muhim ishga katta hissa qo'shgan atoqli shoir Hamid Olimjon, Hodi Zarif, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Buyuk Karimiy, Zubayda Husainova singari fan arboblarining xotirasini hurmat bilan yod etib, bugun ularning ishlarini munosib davom ettirayotgan To'ra Mirzayev, Jalg'as Xushniyozov, Safarboy Ro'zimboyev, Shomirza Turdimov, Mamatqul Jo'rayev, Toshtemir Turdiyev, Jabbor Eshonqulov va boshqa jonkuyar olimlarning nomlarini minnatdorlik bilan qayd etib o'tdi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi PQ-3990-son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2019-yil, 6-aprel soni. - Toshkent: 2019.
3. Mirziyoyev SH.M. Baxshichilik san'ati namoyandalari va muxlislariga. Xalq so'zi gazetasi. 2021-yil, 17-dekabr soni. - Toshkent: 2021